

The logo for the Institute for Macroeconomic and Regional Studies (IMRS) is a red square with the letters 'IMRS' in white, bold, sans-serif font.

Institute for Macroeconomic
and Regional Studies

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

2024
2025
2026

MAY
IYUN
IYUL

Faoliyatning
asosiy
ko'rsatkichlari

Mundarija

2017-2024 yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida olib borilgan islohotlar natijasi.....	2
2017-2024 yillarda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar.....	4
UNCTAD metodologiyasi asosida O'zbekistonning 2017–2024 yillardagi eksporti tarkibining texnologik murakkabligi.....	6
2025-yilning yanvar-aprel oylari uchun nominal (NEER) va real samarali almashuv kursi (REER) indeklari	7
2025-yilning iyun oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi	9
2025-yilning may oyida ikkilamchi bozorda avtomobillar narxining o'zgarishi o'rganildi	10
2017–2024 yillarda O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishidagi asosiy natijalar	12



Agar 2017/2018 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari (OTM) soni 72 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023/2024 o'quv yilida ularning soni 219 taga yetdi (o'sish 304 foiz). Bu davrda xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni qariyb 4,5 barobarga oshdi va 31 taga yetdi.

Ma'lumot uchun: 2024-yil holatiga ko'ra, Qozog'istonda 113 ta, Qirg'izistonda 61 ta, Tojikistonda 27 ta, Turkmanistonda 23 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan.

2025-yilda O'zbekistondagi 23 ta oliy ta'lim muassasasi QS (Quacquarelli Symonds) xalqaro reytingining Markaziy Osiyodagi top universitetlar ro'yxatidan o'rin oldi.

Times Higher Education (THE) Impact Rankings natijalariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistondagi 53 ta (Qozog'istondagi 26 ta) oliy ta'lim muassasasi ushbu global reytingga kiritildi va ulardan 7 tasi (Qozog'istondagi 3 ta) "Top-1 000" ta oliy ta'lim muassasasi reytingidan joy olgan.

Ma'lumot uchun: Times Higher Education (THE) Impact Rankings – bu BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) ga erishishga universitetlar qanday ta'sir ko'rsatishini baholaydigan xalqaro reyting.

2024/2025 o'quv yili boshida 18-23 yosh oralig'idagi aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinish ko'rsatkichi 47,7 foizga yetdi. Bu ko'rsatkich 2017-yilda 8,3 foizni tashkil etgandi.

2024-yil O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni 12,5 ming kishini tashkil qildi va 2017/2018 (1,3 ming nafar) o'quv yilidagiga nisbatan 9,6 barobar oshdi. Mamlakatlar kesimida olib qaraydigan bo'lsak, xorijlik talabalarining aksariyatini Hindiston (6502 nafar), Turkmaniston (1430), Pokiston (1250), Rossiya (732) fuqarolari tashkil etadi.

2024-yilda 27,3 ming o'rinli talabalar turar joyi barpo etildi. Shuningdek, talabalar turar joyiga joylashish tizimi to'liq raqamlashtirildi. Endi talabalar o'z yashash joyini masofadan turib onlayn band qilishi mumkin.

OTMdagi o'qituvchilar soni 2017/2018 o'quv yilida 25,1 ming nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2023/2024 o'quv yilida 45,4 ming nafarga yetdi. Bunda professor o'qituvchilar ulushi 1078 nafardan 2074 nafarga, dotsentlar ulushi 4091 nafardan 7108 nafarga oshdi.

2024-yilda O'zbekistondagi 7 ta oliy ta'lim muassasasining 39 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkazildi. Xalqaro akkreditatsiyaga ega diplomlar boshqa mamlakatlarda ham tan olinadi. 2025-yilda xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan dasturlar sonini 45 taga yetkazish rejalashtirilgan.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli farmoniga muvofiq, davlat OTM magistraturasida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovi davlat byudjeti hisobidan to'lab berilmoqda. Bu maqsad uchun har yili kamida 200 milliard so'm ajratilishi belgilangan;

Bundan tashqari, 2022-yil 18-iyuldagi PQ-323-sonli qaror asosida, oliy va professional ta'limda tahsil olayotgan xotin-qizlarga 7-yil muddatga foizsiz ta'lim kreditini ajratish tartibi joriy etildi va ushbu tizim 2024-yil 27-maydagi PF-82-sonli farmon bilan takomillashtirildi.

Ta'lim tizimi va infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida «O'zbekiston - 2030» strategiyasida bir qator tadbirlar belgilangan. Jumladan:

- Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish;
- 30 ta oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish;
- "Top-500" talikka kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida "ikki diplomli tizim"ni joriy etish;
- Qo'shimcha 120 ming o'rinli o'quv binolari hamda 150 ming o'rinli talabalar turar joyini qurish;
- 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli "Top-1 000" ta oliy ta'lim tashkiloti reytingiga kiritish.

2017-2024 YILLARDA O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM SOHASIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLARNING ASOSIY NATIJALARI



Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

*18-23 yosh oralig'idagi aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinish ko'rsatkichi



Tahlil davomida quyidagilar aniqlandi:

Agar 2017-yilda mamlakatimizda faoliyat yuritgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5186 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil so'ngiga kelganda ularning soni 7 barobar oshgan va 38 058 taga yetgan.

Muassasalardagi o'rinlar soni 3,3 barobarga oshgan va 2,4 milliontani tashkil etgan.

3-6 yosh oralg'idagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2024-yilda 76 foizni tashkil etgan. Bu 2017-yildagi (25,4 foiz) ga nisbatan 3 barobar ko'p demakdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi pedagog xodimlar soni 175 ming nafarni tashkil etadi va har bir xodimga o'rtacha 13,4 nafar bola to'g'ri keladi. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida pedagog xodimlar soni 2,7 barobar oshgan.

2020-yilda «Finance Inquirer» nashri Markaziy Osiyo tadqiqot guruhi (Research Group Central Asia -RGCA) tadqiqoti natijalari hamda YUNICEF, Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga muvofiq, O'zbekiston bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishda dunyoda eng yaxshi o'sish sur'atini ko'rsatgan 10 ta mamlakat reytingida birinchi o'rinni egallagan.


2023-yil 9-oktyabrdan boshlab O'zbekistonning barcha hududlarida ilk marotaba MELQO xalqaro baholash tizimi asosida maktabgacha ta'lim sifatini baholash yo'lga qo'yildi. Baholash natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy holati va sifati yuqori

darajada ekanligi aniqlandi. Jumladan, bolalarda erta matematika ko'nikmalari o'rtacha 94 foizni tashkil etishi, katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalarda erta savodxonlik ko'nikmalari 77 foizdan yuqori ekanligi aniqlandi. E'tiborlisi, baholashda ishtirok etgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 90 foizi o'quv-metodik va didaktik adabiyotlar bilan to'liq ta'minlandi.

Jahon bankinging «Bolalarni erta rivojlantirish tizimini takomillashtirish» loyihasi doirasida respublikamizning 9 ta hududida qayta jihozlangan 30 ta avtobus faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu tashabbus tufayli maktabgacha ta'lim imkoniyati cheklangan hududlarda 142 ta ko'chma guruh tashkil etildi, shuningdek, bolalar uchun 2 528 ta qo'shimcha o'rin yaratildi. Mazkur loyihani amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad barcha bolalarning maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash va maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirishdir.

«O'zbekiston - 2030» strategiyasida bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhleri bilan to'liq qamrab olish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barchasida kompyuter sinflarini tashkil qilish orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligini shakllantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlash maqsadlari qo'yilgan. ■

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy natijalari



*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida MHTI hisob-kitoblari.

Jami maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni




O'rinlar soni



3-6 yosh oralig'idagi bolalar o'rtasida qamrov darajasi



Pedagog xodimlar soni





UNCTAD metodologiyasiga ko'ra, eksport mahsulotlari texnologik murakkabligi va qayta ishlanish darajasiga qarab quyidagi 6 ta toifaga ajratiladi:

Past texnologiyali mahsulotlar (matolar, tayyor kiyim-kechak, plastmassa buyumlar, mebel, charm va yog'och mahsulotlari);

O'rta texnologiyali mahsulotlar (kimyo sanoati, polimerlar, o'g'itlar, dvigatellar, mashinalar, maishiy texnika, avtokomponentlar va qishloq xo'jalik texnikalari);

Yuqori texnologiyali mahsulotlar (elektronika, elektrotexnika, tibbiy uskunalar, farmatsevtika mahsulotlari, aerokosmik texnika va o'lchov asboblari);

Qayta ishlangan resursga asoslangan mahsulotlar (o'simlik yog'lari, tamaki mahsulotlari, sharbatlar, yog'ochdan tayyorlangan buyumlar, ruda, neft mahsulotlari, kimyoviy xomashyo va metallar);

Xomashyo mahsulotlari (paxta tolasi, xom neft, tabiiy gaz, tozalanmagan rudalar, sabzavotlar, mevalar, oltin va boshqa yer osti boyliklari);

Tasniflanmagan mahsulotlar (maxsus maqsadli tovarlar, oltin (nomonetar), xizmatlar, elektr energiyasi, yoki harbiy mahsulotlar).

Eksport tarkibining texnologik murakkabligi tahlili natijalari:

Xomashyo mahsulotlari ulushi 2 barobarga qisqardi. 2017-yilda xomashyo mahsulotlarining eksportdagi ulushi 36,3% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 17,3% gacha pasaydi. 2024-yilda xomashyo mahsulotlari eksporti tarkibida yetakchi o'rinlarni mis (30,96%), sabzavotlar (18,6%), meva va yong'oqlar (15,8%), tabiiy gaz (13,16%) hamda kumush, platina va boshqa qimmatbaho metallar (5,7%) egalladi.

Tabiiy resurslardan qayta ishlangan mahsulotlar ulushi 2 barobarga oshdi. 2017-yilda bu toifa eksportda 3,9 % ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 8,4 % ga yetdi. Yetakchi o'rinlarni neft yoki bitumli minerallar (31,0%), bug'doy uni

va meslin uni (19,2%), qayta ishlangan tamaki mahsulotlari (4,3%), qurilish materiallari (3,7%) va qoldiq neft mahsulotlari (3,5%) egalladi.

Past texnologiyali mahsulotlarning eksportdagi ulushi 14,2% dan 17,1% gacha o'sgan, tarkibi ham sezilarli darajada murakkablashgan. Asosiy ulushni to'qimachilik ipi (37,1%), to'qimachilik mahsulotlaridan tayyor kiyim-kechak (13,1%), trikotaj va to'qilgan matolar (8,1%), tayyor to'qimachilik buyumlari (6,3%), paxta matolari (4,4 %) egalladi.

O'rta texnologiyali mahsulotlar eksportining umumiy ulushi barqaror 8% atrofida saqlanib turib, tarkibi murakkablashmoqda. Asosiy ulushni o'g'itlar (19,1%) va avtomobil qismlari va ehtiyot qismlar (18,6%), polietilen (12,3%), ichki yonuv dvigatellari (8,8%) va maishiy texnika (6,7%) egalladi.

Yuqori texnologiyali mahsulotlarning umumiy tovar eksportidagi ulushi 2017-yildagi 0,5% dan 2024-yilga kelib 1,5% ga yetdi, o'sish esa 3 barobarni tashkil etdi. Asosiy ulushni televizorlar va televidion qurilmalar (14,6%), aylanuvchi elektr uskunalar (14,2%), elektr jihozlari va apparaturalari (10,8%) hamda elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi mashinalar va ularning qismlari (9,7%) egalladi.

O'zbekiston Respublikasining 2017–2024 yillardagi eksport tarkibi tahlili eksportning texnologik tarkibi sifat jihatdan murakkablashayotganligini, xomashyo eksportidan tayyor mahsulotlarga o'tish jadallashayotganligini, past va o'rta texnologiyali mahsulotlar tarkibida chuqur qayta ishlash kuchayayotganligini, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti barqaror o'sayotganligini ko'rsatmoqda. Eksportning texnologik tarkibida ro'y berayotgan ijobiy siljishlar - bu mamlakat sanoat salohiyatining ortib borayotgani va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikning kuchayib borayotganidan dalolat beradi. ■



Izoh: NEER va REER indekslarini hisoblashda savdo hamkorlarimiz sifatida O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida 83 foiz (2024) hissaga ega bo'lgan 20 ta mamlakat, bazaviy davr sifatida 2019-yilning yanvar oyi tanlab olindi.

2025-yilning dastlabki 4 oyida O'zbekistonda real samarali almashuv kursi indeksi pasaydi. Xususan, 2025-yilning aprel oyiga kelib REER indeksi 2024-yilning dekabr oyiga nisbatan 6,2 bandga (111,4 dan 105,2 ga) pasaydi. Bunda, so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi o'zgarishi ta'siri -6,3 band bo'lgan bo'lsa, inflyatsiyaning ta'siri +0,1 bandni tashkil etdi.

Shuningdek, mazkur davrda NEER indeksi 5,4 bandga pasaydi va 94,1 dan 88,7 gacha tushdi.

Izoh: Iqtisodiyotda real samarali almashuv kursining pasayishi, boshqa omillar o'zgarimas deb qaralganda, eksport narxlarining arzonlashishi va import narxlarining qimmatlashishiga olib kelishi mumkin.


2025-yilning yanvar-aprel oylarida REER indeksining pasayishiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida so'mning AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanganligi, Rossiya rubli va Qozog'iston tengesi qadri oshganligi hamda Xitoy yuani qadrsizlanishi so'mning qadrsizlanishidan past bo'lganligini keltirish mumkin.

Ma'lumot uchun: 2025-yilning aprel oyida so'mning AQSh dollarga nisbatan nominal kursi 2024-yil dekabriga nisbatan 0,5 foizga qadrsizlangan bo'lsa, Rossiya rubli 20 foizga, Qozog'iston tengesi 1,1 foizga qimmatlashdi. Xitoy yuani esa ushbu davrda 0,1 foizga qadrsizlandi. Nominal kurs omilining REER indeksiga ta'siri -6,3 bandni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilda O'zbekistondagi narxlar darajasi dinamikasi va asosiy savdo hamkorlarimizdagi makroiqtisodiy tendensiyalar orasida farqlarning yuzaga kelishi REER indeksining biroz yaxshilanishiga ta'sir o'tkazdi.

Ma'lumot uchun: 2025-yilning aprel oyida O'zbekistonda oylik inflyatsiya darajasi 0,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich Rossiyada 0,4 foizga, Qozog'istonda 1,2 foizga va Xitoyda 0,1 foizga teng bo'ldi. Inflyatsiya omilining REER indeksiga ta'siri +0,1 bandni tashkil etdi.

O'zbek so'mining nominal (NEER) va real (REER) samarali almashuv kursi



Manba: MHTI hisob-kitoblari



2025-yilning iyun oyida Toshkent shahridagi yirik supermarketlarda 21 nomdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi ko'rib chiqildi

o'qish vaqti
29 soniya


Monitoring natijalari 9 nomdagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar o'tgan oydagiga nisbatan pasayganligini ko'rsatdi*.

Shunday qilib, oqboosh karamning minimal narxi 64,2 foiz, pomidorniki 44,7 foiz, bodringniki 36,5 foiz, lavlaginiki 21,5 foiz, bananniki 13,0 foiz, olmaniki 8,4 foiz, guruchniki 7,3 foiz, mol go'shtiniki (file) 6,3 foiz, kartoshkaniki 6,0 foiz pasaygan.

6 nomdagi mahsulot bo'yicha minimal narxlar oshgan. Ayniqsa, limon narxida eng katta o'sish qayd etildi. Bu mavsumiy omil bilan bog'liq.

6 nomdagi mahsulotning eng past narxlari o'zgarishsiz qolgan. Bular - bug'doy uni, grechka, makaron, tuxum, margarin, kungaboqar yog'i.

*tahlil 2025-y. 7-may va 12-iyun kunlari o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari asosida amalga oshirildi.





Mahalliy ommabop avtomobillar narxi.

Joriy yilning may oyida mahalliy ommabop avtomobillarning o'rtacha narxi aprel oyidagiga nisbatan quyidagicha arzonlashdi:

- «Onix»: ko'p foydalanilgani \$800 ga (\$13 800 dan \$13 000 ga), o'rtacha foydalanilgani \$220 ga (\$13 700 dan \$13 480 ga);
- «Lacetti»: kam foydalanilgani \$100 ga (\$14 800 dan \$14 600 ga); ko'p foydalanilgani \$100 ga (\$13 000 dan \$12 900 ga), o'rtacha foydalanilgani \$75 ga (\$14 075 dan \$14 000 ga);
- »Cobalt»: kam foydalanilgani \$144 ga (\$12 700 dan \$12 556 ga);
- «Nexia»: o'rtacha foydalanilgani \$100 ga (\$11 000 dan \$10 900 ga);
- «Spark»: ko'p foydalanilgani \$100 ga (\$8 900 dan \$8 800 ga);
- «Damas»: ko'p foydalanilgani \$200 ga (\$7 200 dan \$7 000 ga), o'rtacha foydalanilgani \$200 ga (\$7 800 dan \$7 600 ga), kam foydalanilgani \$50 ga (\$8 050 dan \$8 000 ga).

Mahalliy lyuks avtomobillar narxi. Mahalliy lyuks avtomobillar narxi esa quyidagicha o'zgardi:

- «Equinox»: kam foydalanilgani \$1 166 ga (\$34 666 dan \$33 500 ga);
- «Malibu»: kam foydalanilgani \$750 ga (\$31 250 dan \$30 500ga); o'rtacha foydalanilgani \$1450 ga (\$29 950 dan \$28 500 ga);
- «Tracker»: o'rtacha foydalanilgani \$300 ga (\$17 300 dan \$17 000 ga), kam foydalanilgani \$175 ga (\$18 600 dan \$18 425 ga) arzonlashgan.

Shuningdek, «Equinox»ning o'rtacha foydalanilgani aprel oyiga nisbatan \$700 ga (\$29 800 dan \$30 500 ga), ko'p foydalanilgani \$200 ga (\$26 000 dan \$26 200 ga) qimmatroq taklif etilgan bo'lsa, ko'p foydalanilgan «Tracker» (\$16 000) narxida o'zgarish kuzatilmadi.

Elektromobillar narxi. Mazkur davrda o'rtacha foydalanilgan BYD «Song Plus EV Champion» \$150 ga (\$ 26 350 dan \$26 200 ga) arzonlashgan bo'lsa, boshqa elektromobillar o'rtacha narxi:

- BYD «Han»: o'rtacha foydalanilgani \$2000 ga (\$32 000 dan \$34 000 ga), yangisi \$1 100 ga (\$31 900 dan \$33 000 ga);

- BYD «Song Plus EV Champion»: yangisi \$1100 ga (\$27 800 dan \$28 900 ga);
- BYD «Yuan Up»: o'rtacha foydalanilgani \$850 ga (\$19 300 dan \$20 150 ga), yangisi \$406 ga (\$20 500 dan \$20 906 ga) qimmatlashdi.


Xorijiy avtomobillar narxi. Joriy yilning may oyida xorijiy avtomobillar narxi sezilarli darajada arzonlashdi:

- Kia «Carnival»: ko'p foydalanilgani \$3 500 ga (\$36 000 dan \$32 500 ga), kam foydalanilgani \$2 028 ga (\$47 000 dan \$44 972 ga), o'rtacha foydalanilgani \$1 000 ga (\$46 000 dan \$45 000 ga);
- Kia «Sorento»: ko'p foydalanilgani \$2 100 ga (\$35 250 dan \$33 150 ga), o'rtacha foydalanilgani \$1 700 ga (\$38 000 dan \$36 300 ga);
- Kia «K5»: kam foydalanilgani \$2 777 ga (\$32 000 dan \$29 223 ga), ko'p foydalanilgani \$350 ga (\$25 300 dan \$24 950 ga), o'rtacha foydalanilgani \$150 ga (\$27 150 dan \$27 000 ga);
- Kia «Sportage»: ko'p foydalanilgani \$2 250 ga (\$28 500 dan \$26 250 ga), o'rtacha foydalanilgani \$200 ga (\$30 000 dan \$29 800 ga);
- Hyundai «Elantra»: ko'p foydalanilgani \$1 000 ga (\$21 000 dan \$20 000 ga), o'rtacha foydalanilgani \$301 ga (\$21 201 dan \$ 20 900 ga);
- Kia «Seltos»: ko'p foydalanilgani \$1 000 ga (\$23 000 dan \$22 000 ga), o'rtacha foydalanilgani \$409 ga (\$24 850 dan \$24 441 ga) azronlashdi. Shuningdek, kam foydalanilgan «Elantra» va «Sorento» mos ravishda \$116 (\$24 112 dan \$24 228 ga) va \$1 250 ga (\$43 250 dan \$44 500 ga) qimmatlashdi.


Avtomobillarni guruhlariga ajratish bo'yicha batafsil ma'lumot olish uchun avvalgi tahlillarga qarang.

Narxlarni tahlil qilishda ma'lumotlar olx.uz platformasidan veb skreping (web scraping) orqali to'plandi. Bunda may oyi uchun 15,5 mingta, aprel oyi uchun 15,5 mingta ma'lumotdan foydalanildi.

Mahalliy ommabop avtomobillar



Mahalliy lyuks avtomobillar





O'zbekistonda xizmatlar sohasi barqaror o'sib borayapti va u iqtisodiyot, bandlik hamda hayot sifati o'sishining muhim drayveriga aylanmoqda. 2024-yilda xizmatlar sohasining YalMdagi ulushi 47,4 foizni (2020-yilda 41,6 foiz), bandlikdagi ulushi esa 55,4 foizni (2017-yilda 49,8 foiz) yoki 7,9 mln. kishini tashkil etdi, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar soni esa 2017-yildagiga nisbatan 1,6 baravar ortib, 310,8 mingtaga yetdi.

Jahon bankining baholashicha, 2017–2023 yillarda O'zbekistonda xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymatning o'sish sur'ati Markaziy Osiyoda eng yuqori bo'ldi – yiliga 6,5 foiz (taqqoslash uchun: Qozog'istonda – 2,5 foiz, Qirg'iziston – 3,1 foiz, Tojikistonda – 5,2 foiz). Mamlakatda ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi so'nggi 8 yilda 2,5 barobar o'sdi. O'sish ayniqsa, moliyaviy xizmatlar (7,6 barobar), axborot va aloqa xizmatlari (4,9 barobar), ta'lim xizmatlari (3,2 barobar) kabi sohalarda yuqori bo'ldi.

Xalqaro xizmatlar joylashuvi indeksi (Kearney Global Services Location Index, GSLI 2023) da O'zbekiston 78 ta mamlakat orasida 40-o'rinni egalladi. Unda biznes uchun moliyaviy jozibadorligi mamlakatning kuchli jihatlaridan biri sifatida baholangan.

Raqamlashtirish va onlayn-xizmatlarning faol rivojlanishi YAIMda axborot iqtisodiyoti va elektron savdo ulushining 3,7 foizgacha o'sishida aks etadi (2017-yilda – 2,2 foiz). 2023-yilda elektron tijorat bozorining hajmi 1 mlrd. AQSh dollaridan oshdi.

Raqamli boshqaruvning yetuklik indeksi (GTMI, 2024-yil) da O'zbekiston 43-o'rinni egalladi va 2020-yildan buyon 37 pog'onaga ko'tarildi. Elektron ishtirok indeksi (E-Participation Index) da mamlakat 53-o'ringa chiqdi, 2022-yildan beri 2 pog'onaga ko'tarildi va raqamli xizmatlar yuqori rivojlangan davlatlar guruhida qoldi (baholash ko'rsatkichi – 0,699).

Turistik xizmatlar eng tez o'suvchi yo'nalishlardan biriga aylandi. 2017-yildan buyon turistik xizmatlar hajmi 2,1 barobar oshdi. 2024-yilda turizm xizmatlar sohasida eng katta ulushga ega bo'ldi (22,4 foiz). O'sha yili O'zbekiston 8 mln. sayyohni qabul qildi va Markaziy Osiyoda turistlar oqimining o'sishi bo'yicha 1-o'rinni egalladi (yiliga 20,1 foiz).


Turizm va sayohatlarning rivojlanish indeksi (Travel & Tourism Development Index, TTDI) da O'zbekiston 119 ta mamlakat orasida 78-o'rinni egalladi va faqat 2024-yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarildi. Mutasaddilar bu yutuqni turizm infratuzilmasi, raqamli xizmatlar (onlayn-band qilish, virtual turlar) va viza rasmiylashtirish jarayonlarining soddalashtirilishi (e-visa) bilan bog'lamoqda.

Logistika samaradorligi indeksida (Logistics Performance Index, LPI) da mamlakat 139 ta mamlakat orasida 88-o'rinni egalladi, 2018-yildagiga nisbatan 11 pog'onaga ko'tarildi va MDH davlatlari orasida 5-o'rinni, Markaziy Osiyoda esa 2-o'rinni egalladi. Eng katta o'sish bojxona jarayonlari samaradorligi, xalqaro savdodagi logistika zanjirlarining integratsiya darajasi va logistika xizmatlari sifati bo'yicha qayd etilgan.

2024-yilda xizmatlar eksporti 7,2 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Bu 2017-yildagiga nisbatan 6 barobar ko'p va mamlakat umumiy eksporti hajmining 26,7 foizini tashkil etadi. Xizmatlar eksporti tarkibida asosiy ulushni turizm – 3,5 mlrd. AQSh dollari (48,8 foiz) va transport – 2,6 mlrd. AQSh dollari (35,7 foiz) tashkil etmoqda.

2017-2024 YILLARDA O'ZBEKISTONDA XIZMAT KO'RSATISH VA SERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY NATIJALARI

2017-2024 yillarda xizmatlar sohasidagi o'sish (mart)



Xizmatlar sohasidagi rivojlanish dinamikasi



Xizmatlar eksporti



O'zbekiston xalqaro reytinglarda

Global xizmatlarning joylashuvi indeksi (Kearney Global Services Location Index, GSLI) 2023

40-o'rin (78 ta mamlakat orasida)

2023-yilda dastlabki baholash

Raqamli boshqaruvning yetuklik indeksi (GTMI)

43-o'rin (198 ta mamlakat orasida)

+37 ball (2020-yildan beri)

"A" guruhida (2023-yildan)

Elektron ishtirok indeksi (E-Participation Index)

53-o'rin

+2 pog'ona (2022-yildan beri)

Rivojlanish darajasi yuqori/juda yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhida (0,699)

Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi (Travel & Tourism Development Index, TTDI)

78-o'rin (119 ta mamlakat orasida)

+16 pog'ona (2024-yilda)

Logistika samaradorligi indeksi (Logistics Performance Index, LPI)

88-o'rin (139 ta mamlakat orasida)

+10 pog'ona (2018-yildan beri)

5-o'rin - MDH mamlakatlari orasida

2-o'rin - Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida

